

4. McLeod, S. A. Self concept. Simply psychology. URL: <https://www.simplypsychology.org/self-concept.html> (дата обращения: 08.02.2020).
5. Perception Is Reality: The Looking-Glass Self. URL: <https://lesley.edu/article/perception-is-reality-the-looking-glass-self> (дата обращения: 08.02.2020).

O'ZBEK TILIDAGI LEKSEMALARDA SEMA O'ZGARISHINING MORFEMIK QAYTA TUZILISHIGA TA'SIRI

Q. X. Bakirov

*Talaba,
Andijon Davlat Universiteti, Andijon,
O'zbekiston*

Summary. This article commented on the properties of the lexeme used in the history of the Uzbek language. The idea of expanding the meaning and morphological study in the language is being carried out.

Keywords: lexeme; morpheme; system; etymology; denotate; anthropolinguistics.

Hech bir til o'z holicha shakllanmagan, balki asrlar davomida sayqallanganligidan antropolingvistika, etimologiya fanlari bevosita guvohlik bera oluvchi bir haqiqat borki, bu ham bo'lsa, tilimiz boshqa ko'p tillar qatori asrlar davomida hozirgi takomiliga yetdi. Tilimizdagi so'zlarning leksik imkoniyatlari asrlar davomida keng quloch ochdi, ayrimlari esa o'z leksik qamrovini qisman yoki butunlay yo'qotdi deyish ham mumkin.. Bu borada so'z yasaliş sohasida va leksemalarning mavhumlashuvi tufayli asosning farqlanishida qator muammolar mavjud. Ayrim yasama so'zlarda tub so'zga aylanib, asos va yasalmaning orasidagi aloqa yo'qolgan bo'lsa, ayrimlari esa juft so'zlarning tarkibiy qismi sifatida leksik ma'nosini yo'qotish darajasiga yetgan.

Antropolingvistik izlanishlardan shu narsa ma'lumki, til jamiyat mulki bo'lgani uchun kommunikatsiya vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi, albatta. O'zbek xalqi tarixiy taraqqiyot jarayonida etnik jihatdan turli tukiyl elatlarning aralashuvi natijasida shakllangan, bu esa, o'z navbatida, o'zbek tili tabiatiga ham ta'sir o'tkazgan omillardan biridir. Shuningdek, arial jihatdan qo'shni bo'lgan qardosh yoki qardosh bo'lmagan tillar bilan hammunosabatda bo'lgan.. Zero, qo'shni hudud til xususiyatlaridan ba'zi elementlarning tilimizga kirib kelishi tabiiy. Natijada, tildagi ba'zi leksemalarning arxaiklashuvi va yangi so'zlarning tilimizga o'zlashishi ro'y bergan.

Shunday so'zlardan biri sifatida xalq so'zlashuv tilida faol qo'llanayotgan "Astanovka" so'zini keltirish mumkin. Adabiy tilda uning muqobili –bekat so'zidir. "Bekat" so'zi xususida bir to'xtanga kelish biroz murakkab masala. Ushbu so'zning tilda tarixan sintaktik yoki morfologik usulda yasalganligini muammoli masala. Masalaning yechimiga antrolingvistik jihatdan yondashilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

XI asrda yashagan tilshunos olim M Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida "Bekat" so'zining asosi hisoblangan "Bek" so'zi uchraydi: **بَكْ bĕk-**

mustahkam, saqlangan ma'nosini ifoda etuvchi sifat so'z turkumini ifodalagan [3, b. 321]. O'zbek tilining izohli lug'atida bu so'zning "**Bek II – Berk, yopiq**" ma'nolarni ifodalashi ko'rsatiladi. "Bek" sifatidan yasalgan بكلادى **bēklādi** ya'ni *saqlandi, turg'unlandi* kabi ma'nolar "Bekat" so'zi uchun semantik jihatdan asos bo'lgan deyish mumkin. Rus tilidan o'zlashgan "**Astonovka**" so'zining asosi sifatida "*останавливаться*"-to'xtash, *turg'unlanish* ma'nolari asos bo'lsa, "Bekat" so'zining o'zagi sifatida "Bekla" so'zini asos deb hisoblash mumkin: *ēr ēvinda bēklandi* – kishi uyida turg'un bo'ldi [3, b. 277]. Ammo bu zamonaviy qarash o'zini to'raligicha oqlay olmaydi. Tarixga nazar solsak, to'xtash joyi - bekat leksemasi kechagina paydo bo'lmagan. Ayniqsa, chingiziy sulolalari davrida keng sarhadlarni boshqarish qiyin va poytaxt bilan uluslar orasidagi masofa uzoq bo'lganligi sababli oradagi uzoqlikni yaqin qilish maqsadida "**Yom**"lar tashkil etildi. *Yomlar – yo'l bekatlari*. Choparlar, yo'lovchilar ot almashtiradigan joy. yomda doimo otlar ulovga tayyor turgan [4, b. 85]. Yuqoridagi fikrdan kelib chiqqan holda to'xtash joyining asosi biz o'ylaganimizdan ko'ra qadimiyroqdir. Mo'g'ul tilidagi "Yom" so'zi xalq tarafidan qabul qilinmagan. Xalqona ravishda xabarchi otini almashtirish niyatida to'xtalgan joy bo'lgani uchun, tabiiyki, o'sha joyda ot saqlangan, ya'ni xalq bu so'zni "**Yom**" emas, "**Bek**" mustahkamlanadigan, saqlanadigon, "**At**"- *ayg'ir, yilqi* so'zidan [3, b. 87]. "*Ot saqlanadigon joyi*" ma'nosini ifoda etgan deya mumkin. Ammo shuni ham aytib o'tish joizki, turkiy tilda "**-adigan**", "**uvchi**" ma'nolarini ifodalovchi *-t* affiksi ham mavjud: قچت – *qochuvchi, qochadigan* [3, b. 51] va ushbu qo'shimchadan ot yasalgan. "Bek" so'ziga qo'shilgan bu qo'shimchadan, "Bekat" so'zini —"saqlanadigon joy" sifatida talqin etishimiz mumkin.

Demak, yuqorida keltirilgan "At" so'zini qo'shimcha emas, alohida leksema deb hisoblashmumkin va bunga sabab obyektning aniqligidir. Agar "At"ni "ko'kat", "qutat" so'zlaridagi "At" qo'shimchasi sifatida qabul qilsak, mavhumlashadi va ko'proq umumiy ma'no kasb etadi. Shu o'rinda "O'zbek tilining izohli lug'ati"larida "Bekat" so'ziga razm solsak, quydagicha izohlanadi: Bekat 1).tar.Qadimda yo'llarda karvonlar va yo'lovchilar to'xtab dam oladigan maxsus joy, manzil. Xullas, "Bekat" so'zi dastlab otlarni saqlab, dam oldiradigan joy ma'nosida ifoda etilgan bo'lsa, endilikda uning semantik doirasi kengaygan va o'zgarish yuz bergan. Natijada, ushbu so'z tub so'zga aylangan. Xuddiki, "Qishloq"(qish,-la,-q) so'zi kabi: qadimda "Qishloq" chorvador aholining tog' yon bag'ridagi qishlaydigan tekisliklar nazarda tutilgan bo'lsa, bugungi kunda shahardan tashqari, atrof joyini ifodalaydi. Tilimizda bu kabi so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi. Shu bilan birga, faol qo'llanmaydigan juft so'z komponentlari ham mavjud bo'lib, qardosh va areal jihatdan qo'shni bo'lgan tillarda ushbu komponentlar faol qo'llanadi.

Masalan, "**Mahalla-ko'y**". Ushbu juft so'z tarkibidagi "Mahalla" komponenti hozirgi o'zbek tilida faol qo'llanuvchi leksema (garchi arab tilidan o'zlashgan bo'lsa-da)hisoblanadi, "Ko'y" komponenti esa qadimgi turkiy tilga oid bo'lib nofaol so'zga aylangan. Lekin "Ko'y" so'zi Usmonli turk tilida hozir-

da ham “*Qishloq*” ma’nosini ifodalovchi mustaqil leksema sifatida qo’llaniladi [5, b. 56].

Noqardosh tildan o’zlashgan “**Zo’r**”(forscha- kuch) so’zini tilimizda zid ma’no kasb etuvchi ikki xil leksema sifatida tushunish mumkin. Ya’ni “**Zo’r**” so’zining semantikasida “**A’lo**” ma’nosi ham “**qiyin**” ma’nosi ham mavjud. Masalan, Ahvollar qalay? –zo’r, shukur! Bugun ancha yaxshiman. Behuda harakat va urinish zo’ridan bel chiqadi. Hozir zo’rg’a yuribman [1, b. 220].

Xulosa qilib aytganda, til xalq mulki ekan, kommunikatsiya jarayonida so’zlarning qabul qilinishi leksemalarning qay holatda anglashilishi ham xalq tafakkuri bilan bog’liq masaladir. Leksema ma’nolarining qay darajada kengayib yoki torayib borishi asrlar davomida tilga ta’sir etuvchi turli omillar natijasidir. Ammo qaysiki so’z bo’lmasin, leksik jihatdan denotativ ma’nosidan qanchalar uzoqlashmasin, baribir uning ilk ma’nosi tadqiq obyekti sifatida ahamiyatli bo’lib qoladi.

Bibliografik roy’xat

1. Begmatov E. va boshqalar –O’zbek tilining izohli lug’ati. Davlat ilmiy nashryoti, Toshkent, 1998.
2. Dadaboyev X. Xolmonova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi Toshkent, 2015.
3. M Qoshg’ariy “Devoni lug’otit-turk” . Toshkent-1963 II jild.
4. Shamsiddinov R. va boshqa “O’zbekiston tarixi” “Sharq” nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Toshkent – 2017.
5. Yunus Berdaq O’zbekcha- turkcha izohli lug’at – “O’zbekiston” 1993.

XALQARO MEDIA MAKONDA FAKE NEWS TURLARI VA ULARNING TAHLILI

A. Joldasbaeva

*Magistrant,
Jurnalistika universiteti va Ommaviy kommunikatsiyalar O’zbekiston,
Toshkent, O’zbekiston*

Summary. This article gives examples of the experience of using the Factchecking platform in a modern media structure. The article also presents the disadvantages and advantages in this area, the author gives his recommendations.

Keywords: fact checking; fake news; news; Kazakhstan; Kyrgyzstan; Uzbekistan.

Bugungi kunda jahon aholisining anchagina qismi Internet global axborot tarmog’idan keng foydalanadi. Smart Insights kompaniyasi tomonidan o’tkazilgan Global Social Media Research Summary 2019 tadqiqoti natijalariga ko’ra 2019 yil yanvar oyida internet foydalanuvchilari soni 4,021 mlrd (dunyo aholisining 53 foizi) kishiga yetgan bo’lib, bu o’tgan 2018 yilga nisbatan 7 foiz ko’pdir. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari soni 3,196 mlrd kishini (dunyo